RAQAMLI IQTISODIYOTDA AXBORAT TEXNOLOGIYALARNING DOLZARBLIGI

Nazarov Dauletniyaz Allaniyaz o‘g‘li
Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va tizimlari ixtisosligi bo‘yicha
1-kurs magistranti
ndawletniyaz@gmail.com
+998936146521

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyotda axborot texnologiyalaridan foydalanishni muhimligi,global iqtisodiyotdagi o’rni haqida va nojo’ya ta’sirlari va ularni bartaraf etish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: Raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, global iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyotning o’sishi, raqobatbardoshligi, texnologik innovatsiyalar va yangi tendensiyalar, blokchain, bulutli texnologiyalar, sun’iy intellect.

Abstract. This article discusses the importance of using information technologies in the digital economy, their role in the global economy, as well as their negative effects and ways to mitigate them.

Keywords: digital economy, information technologies, global economy, growth of the digital economy, competitiveness, technological innovations and new trends, blockchain, cloud technologies, artificial intelligence.

Kirish.

Raqamli iqtisodiyot yaxlit bir organizm bo’lsa, axborot texnologiyalari ana shu organizmga hayot bag’ishlovchi yurak hisoblanadi. Axborot texnologiyalari raqamli iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega va uning asosiy jihatlari:

1. Raqamli iqtisodiyotning o’sishi deyilganda, jahon iqtisodiyotining rivojlanishi axborot texnologiyalariga tayanadi.

2. Ma’lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish bu berilgan ma’lumotlarga tayangan holda iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va tegishli qarorlarni qabul qilish
3. Raqobatbardoshligini oshirish esa axborot texnologiyalariga tayangan holda ma’lumotlarni avtomatlashtirish va optimalizatsiya amalga oshadi, kompaniyalar ham axborot texnologiyalari yordamida o’zining kompaniyasiga tegishli xarajatlarni optimallashtiradi, maxsulotlarni sifatini yanada yaxshilab bozorga olib chiqadi.

Raqamli iqtisodiyot tushunchasini 1995-yili Massachusets universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan.

Raqamli iqtisodiyot - xo‘jalik faoliyatlarini yuritish va yo‘lga qo’yish bo’lib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi barcha harakatlar raqamlar ko'rinshidagi ma'lumotlardan iborat bo’ladi.Hajm jihatidan katta bo’lgan axborotlarni qayta ishlash va uning natijasini tahlil qilgan holda yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishga oldingi tizimga nisbatan samaraliroq,foydaliroq bo’lgan yangi tizimni joriy qilish hisoblanadi.Yoki boshqacharoq talqin qilsak,raqamli iqtisodiyot - onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron to’lovlarni bajarish ,onlayn savdolar qilish va boshqa turdagi sohalarni raqamli texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'liq faoliyat turi.

Axborot texnologiyalari iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni yanada oshirish, aholining yashash (turmush) darajasini yaxshilash va ish samaradorligini kuaytirish uchun xizmat qiladi.Mana shu sabablar bois axborot texnologiyalarining hayotimizdagi o’rni beqiyos va yildan yilga unga bo’lgan talab va ehtiyoj ortib bormoqda.

Raqamli iqtisodiyotda axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi bu iqtisodiy o’sish ya’ni rivojlanishga, global miqyosdagi tendensiyalarga bog’liq bo’ladi.

1. Texnologik innovatsiyalar va yangi tendensiyalar:

IoT(Internet of Things) raqamli iqtisodiyotda aqlli qurilmalarning hamda tizimlarning keng ko'lamdagi qo'llanishi,logistika ,xizmat ko'rsatish kabi sohalarni avtomatlashtirgan holda ish yuritishi demakdir.

Blokchain - bu moliyaviy xizmatlar, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, logistika kabi sohalarda inqilobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishi

Bulutli texnologiyalar esa kompaniyalarga global miqyosda ishlash va ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlab chiqishn iosonlashtirib xarajatlarni esa kamaytirishga imkon yaratadi.

2. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish. Sun'iy intellekt bu iqtisodiyotning barcha sohalari

,jumladan,qishloq xo'jaligi,sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish kabi sohalarda ham qo'llashimiz mumkin va bu sohalarda ishlash samaradorligini oshiradi.

Avtomatlashtirish bu inson uchun qulaylik yaratish, ya'ni tez-tez va qayta takrorlanuvchi ishlarni avtomatlashtirgan holda insonning mehnatini samarali ishlarga yo'naltirish demakdir.

3. Raqamli to'lov tizimlari.

Elektron tijorat Jahondagi mamlakatlarda xalqaro platformalar -Amazon, Alibaba va mahalliy platformalar -Payme, Click kabi platformalar orqali to'lovlar amalga oshirish imkoniyati rivojlanib bormoqda

FinTech: Banklar va moliyaviy institutlar raqamli xizmatlar ko'rsatishi orqali fuqarolarga qulayliklar yaratishi va tizimning yanada rivojlantirishi.

4. Raqamli transformatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri

Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish: An'anaviy ishlab chiqarishdan xizmatlar va raqamli sohalarga o'tish imkoniyati.

Diversifikatsiya ishlab chiqarishdagi samaradorlikni oshirish,olinayotgan foydani ko'paytirish kabi faoliyatlarda qo'llaniladi.Diversifikatsiya natijasida turli xildagi

mahsulotar ishlab chiqaradigan hamda xizmat ko‘rsatish, loyiha va ishlanmalar bilan band bo‘lgan keng tarmoqli lekin texnologik jihatdan bir-biriga bog‘lanmagan majmualar mavjud bo’ladi.Kredit diversifikatsiya ko‘rinishi deyilganida, kredit sifatida beriladigan kapital mablag‘lar bilan bog‘liq xavflarni kamaytirish va foydani ko’paytirish maqsadida turli xildagi ob’yektlar orasidagi taqsimlanish jarayoni.Bunday diversifikatsiya tarmoqlararo kapital konsentratsiyasi jarayoni va korxonalar o‘rtasidagi ichki beqarorlikning kuchayib ketishi bilan bog‘liq bo’ladi.

Sarmoyalar jalb qilish: Raqamli iqtisodiyotdagi ma’lum bir sohaga moliyaviy tomondan qo‘llab quvvatlash hisoblanadi.

Global integratsiya: Axborot texnologiyalari chet el investitsiyalarini jalb qilishda va xalqaro bozorga chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

Raqamli xavfsizlik va ma’lumotlarni himoya qilish

Kiberxavfsizlik muammolari: Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan birga kiberxurujlar va ma'lumotlar o‘g‘irlanishi xavfi ortishi va bular bilan birgalikda mana shu muammolarni bartaraf etuvchi texnologiyalarni ishlab chiqarish muhim rol o‘ynaydi.

Ma’lumotlarni boshqarish: Katta ma’lumotlar (Big Data) bilan ishlashda xavfsizlikni ta’minlab, maxfiylikni kuchaytirish lozim.

5. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish

Tezkor internet: Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash uchun yuqori tezlikda ishlaydigan internet tarmog‘lari muhim.O’zbekistondagi eng tezkor internetni aniqlash maqsadida Speedtest ilovasi joriy etilgan 500 mingdan ortiq test natijalari taqqoslanadi.Natijalar Ucell'ning ushbu reytingda yetakchi o‘rinni so‘zsiz ta’kidlaydi, deydi kompaniya press-relizida. Yuqori tezlikdagi 4G LTE tayanch stansiyalarini ishga tushirishga harakat qilinmoqda, shuningdek ular sifatli ovozli va video aloqa hamda internetning ishonchli va xavfsiz bo‘lishini ta’minlaydi.

Jahondagi davlatlarning internet tezligi bo‘yicha reytingida WebsiteToolTester kompaniyasining tuzgan reytingiga ko‘ra, eng tezkor interga Tayvan, Singapur, Juersi oroli(La-Mansh bo‘g‘ozidagi orol), Shvetsiya va Daniya yetakchi o‘rinni egallaydi.Tayvanda internet orqali 5 gigabaytlik kinoni 8 daqiqa 2 soniyada ko’chiring olish mumkinligini va o‘rtacha internet tezligi 85megabit/soniyani tashkil qilishini aytdi.

Raqamli platformalar: Mahalliy startaplar va texnoparklarning rivoji raqamli iqtisodiyotda yangi g‘oyalarni amaliyotga joriy qilish imkonini Raqamli platformalar ma’lumotlarni tarqatish,qidirish, shartnoma tuzish va monitoring xarajatlar kabi tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

6. O‘zbekistonning tajribas GPi va imkoniyatlari

Elektron hukumat: Davlat boshqaruvida raqamli xizmatlar rivojlantirilmoqda Bunga misol qilib (my.gov.uz) portalassini olishimiz mumkin. Bu portal yagona interaktiv xizmatlar portali hisoblanadi.Bu portal orqali biz fuqarolar uchun zarur bo‘lgan hollarda hujjatlarimizni yuklab olishimiz, kerak vaqtida online arizalar topshirishimiz ham mumkin.my.gov.uz adliya, fuqarolik,oila va bolalar kabi bo‘limlarga bo’lingan va biz bu bo‘limlar orqali fuqarolarga huquqiy jihatdan yordam ham beriladi.

Raqamli loyihalar: Innovatsion rivojlanish vazirligi va IT Park singari muassasalar orqali axborot texnologiyalari rivojlantirilyapti.

Startaplar uchun imkoniyatlar: Yoshlar uchun raqamli texnologiyalarni o‘rganish dasturlari joriy etilmoqda.

Startap – (startap kompaniya) yangi yo‘nalishdagi mahsulotlar yoki xizmat ko‘rsatish orqali foyda ko‘rishni ko‘zlagan kompaniyalar.

Startaplar innovatsiyalar yordamida yangi loyihalar tuzadi yoki tayyorlanayotgan mahsulotlarning kamchiligini o‘rganib chiqib, ularni bartaraf qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari nafaqat texnik vosita, balki iqtisodiy barqarorlikning asosiy kafolatidir. Maqolada ko‘rib chiqilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ATni barcha sohalarga izchil joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish va global bozorda raqobatbardoshlikka erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Qalmuratov. Sanlı ekonomika sharayatında aymaqta sanaat tarmaǵın modernizaciyalaw hám diversifikaciyalawdı basqarıwdıń tiykarǵı baǵdarları Sanlı ekonomika sharayatında aymaqta, isbilermenlik, innovaciyalıq texnologiyalar hám sanaat infrastrukturasın jedel pátte rawajlandırıw perspektivaları: mashqala hám seshimler atamasındaǵı Respublikalıq ilimiy-ámeliy konfereciya. 2023 jıl 10-oktyabr
2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W.W. Norton & Company.
3. Binns, A. (2018). AI and the Future of Business. Springer.
4. Siau, K., & Wang, W. (2018). Artificial Intelligence in Business and Industry: A Global Perspective. Springer.